

POLITONIMLAR HAQIDA

Sharipova Madina Ikromovna

UrDU Filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili mutaxassisligi 4- bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada politonimlar siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha nomlarni o‘rganishi, ularning rivojlanib, kengayib borayotgan onomastik sathda alohida o‘ringa egaligi hamda onomastikaning yangi, rivojlanayotgan sohalaridan biri sifatida o‘rganilishi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Onomastika, politonimiya, politonimlar, antroponimlar, poliantroponimlar ,politoergonomalar , siyosiy xrematonimlar, onim.

ПОЛИТОНИМИ

Аннотаци. Политонимы изучают все имена, имеющие политическое значение; изучение политонимов как одного из новых, развивающихся направлений ономастики.

Ключевые слова: Наука, ономастика, политономия, политонимы, антропонимы, полиантропонимы, политоэргонимы , политические хрематонимы, оним

POLITONYMS

Abstracr. Polytonyms study all names that have political significance; the study of polytonyms as one of the new, developing areas of onomastics.

Keywords: The science of onomastics, polytonomy, polytonyms, anthropony, polyanthroponyms, political ergonyms, political chrematonyms, onym

KIRISH

Onomastika sohasi o‘tgan asrning 60-70-yillarida eksperemantal fonetika, fonologiya, frazeologiya, stilistika, sotsiolingvistika sohalari qatorida vujudga kelgan va tez orada tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi.¹

Onomastika tilshunoslikda bir qancha sohalar tadqiqi bilan shug‘ullanishi barchaga ma’lum. Bugungi globallashuv jarayonida siyosiy tizimlar o‘zgarib, yangilanib bormoqda. Natijada jamiyat a’zolar va ommaviy axborot vositalarida

¹ Onomastika [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Bayramali Kilichev – Buxoro: 2023. –180 b.

siyosiy mavzularning muhokamasi tobora ortib bormoqda. Siyosatchilar, siyosiy partiyalar, ularning qaror va bayonotlari matbuotda, jamiyat orasida qizg‘in muhokama qilinmoqda. Shu sababli siyosiy onomastika antroponimlar, ya’ni siyosiy sferadagi kishikarning ismlari, siyosiy partiyalar nomlari, siyosiy ahamiyatga ega voqealari va boshqa nominativ birliklar bilan keng ifodalanadi, bu esa tadqiqotchilarni qiziqtirmasdan qolmaydi. Shularni hisobga olib holda aytish mumkinki, bugungi kunda onomastikada maxsus ilmiy yo‘nalish – siyosiy onomastika (politonomimlar) shakllanmoqda. Onomastik makonning doimiy ravishda takomillashib borishi natijasida, uning ichida yangi onomastik soha – politonimiya, o‘zida siyosiy hayotning barcha nomlarini mujassamlashtirgan – politonomimlar vujudga kelgan. Hozirda siyosiy onomastikaning chegaralarini aniqlash, uning tarkibiy modellarini ishlab chiqish tilshunosliknun dolzarb masalalaridan biridir.

Ushbu maqolada siyosiy onomastikaning birligi bo‘lgan politonomimlar xususida so‘z yuritiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Siyosiy onomastikaning birligi bo‘lgan politonomimlar o‘z ichida bir qator mikroko‘lamlarni mujassamlaydi. Ular quyidagilar:

- poliantroponimlar - siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilar va jamoat arboblarining nomlar;
 - politoergonimlar - siyosiy partiyalar va birlashmalarning nomlari;
 - siyosiy xrematonimlar - ijtimoiy-siyosiy miqsoydadagi turli xil hodisalarning nomlari;
- shuningdek, siyosiy pretsedent (miqyosdagi) toponimlar.

Rus olimi N.V.Shimkevich politonimga shunday ta’rif beradi: “Muntazam ravishda qo‘llanilib kelinadigan siyosiy partiyalar, uyushmalar, siyosiy guruhlar va shu kabi siyosiy leksikaga oid nomlar uchun politonomimlar termini qo‘llash maqsadga muvofiqdir”.¹

Politonomim termini grekchadan olingan bo‘lib, uning asosi “politika” – “ijtimoiy faoliyat” va “onim”-“nom”degan ma’noni anglatuvchi so‘zlardan tarkib topgan. Ilgari ba’zi manbalarda palitonim termini “ma’lum bir mamlakat aholisi”, yoki “ u yoki bu mamlakat fuqarosi” ma’nolarida ko‘p qo‘llangan, ammo onomastika sohasida bu termin uchun yuqorida keltirgan ta’rifimiz ko‘proq mosdir.

MUHOKAMA

Belgilangan vazifa, birinchi navbatda, onomastik tadqiqotimizning asosiy atamasi

- politonomimlarni tilshunos olimlar tomonidan taklif qilingan onomastik makon

¹ Н. В. Шимкевич” кандидат филологических наук, независимый исследователь Россия, Екатеринбург ЭВОЛЮЦИЯ РУССКОЙ ПОЛИТОНИМИИ В НОВЕЙШЕЕ ВРЕМЯ” 2018.

doirasida bildirilgan ilmiy fikrlarga murojaat qilishni talab qiladi. A. V. Superanskaya, Olga Anatolevna Tkachenko kabi rus olimlarining shu sohaga oid fikrlariga to‘xtalsak. Rus tilshunosi, filologiya fanlari nomzodi Olga Anatolevna Tkachenko o‘zining maqolasida politonimlar haqida yozar ekan, shunday fikrlarni bildirib o‘tadi: “Ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha nomlari yig‘indisini o‘rganuvchi soha bu politonimiyadir”¹, -degan fikrni bildirib o‘tadi.

XULOSA

Demak, tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, onomastik makonning chegaralari kengayib bomoqda, xususan, unda siyosiy sohaning onomastikasi shakllanmoqda va ular doirasida alohida onomastik sinflar shakllanmoqda. Bundan tashqari, tadqiqot siyosiy onomastikaning umumiy vazifalarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, onomastik birliklarning ushbu toifasi va umuman siyosiy onomastika haqidagi ilmiy g‘oyalarni onomastik tadqiqotning alohida yo‘nalishi sifatida kengaytirish maqsadida siyosiy onomastikani o‘rganishni davom ettirish istiqbolli ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

Onomastika [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Bayramali Kilichev – Buxoro: 2023. –180 b

➤ Н. В. Шимкевич” кандидат филологических наук, независимый исследователь Россия, Екатеринбург ЭВОЛЮЦИЯ РУССКОЙ ПОЛИТОНИМИИ В НОВЕЙШЕЕ ВРЕМЯ” 2018.

➤ Ткаченко, О. А (кандидат филологических наук; Новгородский государственный университет имени Ярослава Мудрого, Великий Новгород, Российская Федерация). (2022). Политическая ономастика. VERBA. Северо-Западный лингвистический журнал, 1(3), 18–27. DOI: 10. 34680/VERBA-2022-1(3)-18-27

¹ Ткаченко, О. А (кандидат филологических наук; Новгородский государственный университет имени Ярослава Мудрого, Великий Новгород, Российская Федерация). (2022). Политическая ономастика. VERBA. Северо-Западный лингвистический журнал, 1(3), 18–27. DOI: 10. 34680/VERBA-2022-1(3)-18-27